

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

"TASDIQLASH"



202 5 yil «28»

**«TIKUV BUYUMLARINI KONSTRUKSIYALASH»
FANINING O'QUV DASTURI**

- Bilim sohasi:** 700 000 –Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
- Ta'lim sohasi:** 720 000 – Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
- Ta'lim yo'nalishi:** 60720700 – Yengil sanoat muhandisligi (tikuv buyumlarini konstruksiyalash va texnologiyasi)

Fan/modul kodi TBK145614	O'quv yili 2025-2026, 2026-2027	Semestr 4; 5; 6	ECTS-kreditlar 14 (5,5,4)	
Fan/modul turi majburiv	Ta'lim tili O'zbek,rus		Haftadagi dars soatlari 4,4,4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tikuv buyumlarini konstruksiyalash	168	252	420
2.	<p>I.Fanning mazmuni:</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad –zamonaviy kiyim assortimenti, moda yo'nalishi, kostyum kompozitsiyasi asoslariga mos ravishda, ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga olgan holda, turli shakl, bichim, siluetdagi kiyim modellarini loyihalashning zamonaviy va istiqbolli usullarini egallash uchun nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanni vazifasi – fan va texnika yutuqlardan foydalanib yangi kiyim modellarini sanoat sharoitida loyihalash, iste'molchi va ishlab chiqarish talablarini hisobga olgan holda turli materiallardan yekali va bel kiyim konstruksiyasini ishlab chiqish, model eskizlarini tahlil qila olish va konstruktiv modellashning ratsional usullaridan foydalanish bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini kurs, diplom loyihalarini bajarish va real sharoitga qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari):</p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</p> <p>1- mavzu. Kirish. "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash" fani haqida ma'lumot</p> <p>"Tikuv buyumlarini konstruksiyalash" fanining mazmuni, predmeti va metodi. Kiyim haqida umumiy ma'lumotlar va asosiy tushunchalar. Moda va uslublar.</p> <p>2- mavzu. Zamonaviy kiyim assortimenti va tavsifi</p> <p>Zamonaviy kiyim assortimenti va tasnifi. Mahsulot klassifikatorida tikuv buyumlarining tasnifi. Tikuvchilik sanoatida qo'llaniladigan manekenlar nomenklaturasi. Sanoat manekenlari nomenklaturasi. Kiyim manekenlari.</p>			

3- mavzu. Kiyim sifati va uni baholaydigan ko'rsatkichlar

Kiyimga qo'yiladigan talablar. Sifat ko'rsatkichlari haqida tushuncha. Iste'molchi va texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlar.

4- mavzu. Aholi razmerli tipologiyasi va o'lchamlar standartlari

Tananing o'lcham belgilarini olish usullari. Odam tanasining o'lchamli tavsifi. Yetakchi antropologik razmer standartlari. Zamonaviy razmerli tipologiya.

5- mavzu. Kiyim loyihalashning nazariy asoslari

Kiyimlarning konstruktiv xususiyatlari. Kiyim yuzasining tipaviy bo'laklanishi. Kiyim konstruksiyasini aniqlovchi asosiy belgilar.

6-mavzu. Zamonaviy kiyim shakli va konstruktiv tavsifi

Kiyim asosiy silueti va bichimlari. Konstruktiv va dekorativ chiziqlar. Kiyimlarning konstruktiv tavsifi.

7- mavzu. Kiyim ichki shakli va o'lchamlari

Kiyimning shakli va olchamlari. "Odam - kiyim - muhit" sistemasi haqida tushuncha. Kiyimning ichki razmerlari va odam tanasi tashqi razmerlari orasidagi mutanosiblik.

8-mavzu. To'kislik qo'shimchasiga materiallar xususiyatlarini ta'siri

Tana o'lchamlarining dinamikada o'zgarishini e'tiborga olgan holda minimal kerak bo'lgan qo'shimchalarni hisoblash prinsiplari. Kiyimdagi qo'shimchalarning material paketiga bog'liqligi. Kompozitsion qo'shimchalar.

9- mavzu. Zamonaviy kiyim konstruksiyalash usullari

Zamonaviy kiyim konstruksiyalash usullari. Kiyim konstruksiyalashga oid yuzalar yoyilmasi va ularning tasnifi. Kiyimlarni konstruksiyalash xususiyatlari.

10- mavzu. Kiyim loyihalashda ishlatiladigan konstruktiv parametrlar

Kiyim loyihalashda dastlabki ma'lumotlar. Bazis to'ri tushunchasi. Turli kiyimlar asos konstruksiyalari chizmasi. Konstruktiv nuqtalar va ularning belgilanishi.

11-mavzu. Kiyim konstruksiyalashdagi dastlabki chizmalar.

Kiyim detallari dastlabki chizmasini chizish va ularni hisoblash usullari.

Old va ort bo'laklar asosiy konstruksiyasining chizmasini qurish. Kiyim balansini. Kiyim konstruksiyasining bazaviy asosi.

12- mavzu. Bel kiyimlarini konstruksiyalash xususiyatlari

Bel kiyimlariga qo'yiladigan talablar. Bel kiyimlari uchun bazis to'rini qurish. To'g'ri yubka konstruksiyasini qurish. Shim konstruksiyasini qurish usullari.

13- mavzu. Yelka kiyimlarni konstruksiyalash xususiyatlari

Yelka kiyimlariga qo'yiladigan talablar. Yelka kiyimlarini konstruksiyalashda dastlabki ma'lumotlar.

14- mavzu. Kiyimda o'tqazma yenglarni konstruksiyalash hususiyatlari

O'tkazma yenglarning shakli va tashqi ko'rinishi tavsifi. Konstruksiya qurishda dastlabki ma'lumotlar. Yeng konstruksiyasiga qo'yiladigan talablar. Yeng konstruksiyasi hususiyatlari va konstruksiyalash usullari.

15- Turli yoqalarning konstruksiyasini tuzish xususiyatlari

Yoqa turlari va tashqi ko'rinishi tavsifi. Yoqa konstruksiyalarining tasnifi. Bo'yin o'mizi shakli va unga yoqalarni moslashtirish. Turli yoqalarning konstruksiyalari xususiyatlari.

16- mavzu. Kiyim nuqsonlarining sinflanishi

Kiyim nuqsonlarining sinflanishi. Konstruktiv, dekorativ va texnologik nuqsonlarning paydo bo'lish sabablari. Nuqsonlarni tuzatish usullari.

17- mavzu. Tipaviy tuzilishdan og'ishgan qomatlarga mos kiyimlarni konstruksiyalash hususiyatlari

Tipaviy tuzilishdan farq qiluvchi qomatlar tavsifi. Notipaviy qomatlarga kiyim konstruksiyalashda dastlabki ma'lumotlarni aniqlash. Qomatga bog'liq kiyim konstruktiv parametrlarining o'zgarishi.

18- mavzu. Turli materiallardan kiyimlarni loyihalash

Kiyim loyihalashda materiallar tavsifi. Charm va mo'ynadan kiyimlarni konstruksiyalash xususiyatlari. Trikotaj buyumlarini konstruksiyalash.

19- mavzu. Ishlab chiqarish kiyimlariga xos xususiyatlar

Ishlab chiqarish kiyimlariga qo'yiladigan talablar Ishlab chiqarish kiyimlarini yaryatishda ishlatiladigan materiallar va furnitura. Ishlab chiqarish kiyimlarini loyixalash. Ishlab chiqarish kiyimlarining to'kislik qo'shimchasi

20- mavzu. Kiyimning yangi modellari konstruksiyalarini ishlab chiqish usullari

Konstruktiv modellash tushunchasi. Konstruktiv modellash (KM) uchun daslabki ma'lumotlarni tayyorlash. Bazali konstruksiyani tanlash mezonlari. Bazaviy konstruksiya (BK) dan foydalanib KM ning 4 xil asosiy turlari.

21-mavzu. Bel kiyimlarini BK shaklini o'zgartirmay KM usullari

Yangi model tuzilishining tahlili. BK ni shaklini o'zgartirmay yubka va shimni KM.

22- mavzu. Yelkali kiyimlarni BK shaklini o'zgartirmay KM usullari

Yangi model tuzilishining tahlili. Yelkali kiyimlarni KM elementlari; vitochka ko'chirish, taxlama va taqilmalar, bo'yin o'mizi shakli, cho'ntak, lifni qo'shimcha bo'laklash.

23- mavzu. Bel kiyimlarini BK shaklini o'zgartirib KM usullari

Bel kiyim detallarini konus va parallel kengaytirish. Turli shakldagi yubkalarni modellash. Yelka kiyimlarini BK shaklini o'zgartirib KM usullari Yelkali kiyim detallarini konus va parallel kengaytirish.

24- mavzu. O'tqazma yenglarini KM usullari

O'tqazma yenglarni KM, yeng uchi kengligini o'zgartirish, yengni konus va parallel kengaytirish. Vitachkani qayta modellash.

25- mavzu. Kiyim yangi modellarni loyihalash bosqichlari

Ishlab chiqarishini konstruktorlik va texnologik jihatdan tayyorlash uchun dastlabki ma'lumotlar: model namunasi, dastlabki konstruksiya, normativ texnik hujjatlar. Kiyimlarni «Konstruktorlik hujjatlarining yagona sistemasi (KHYaS)» Davlat standartiga mos ravishda loyihalash bosqichlari.

26- mavzu. Kiyim detallari andazalari chizmasini tayyorlash asoslari

Kiyim model konstruksiyasi, texnologik qo'shimchalar kiritilgan yig'ma chizmalar, kiyim paketi materiallari xarakteristikasi va xossalari. Kiyim detallari andazalarini ishlab chiqish tartibi. Kiyim detallari andazalarini ishlab chiqish

uchun dastlabki ma'lumotlar.

27- mavzu. Kiyim andazalari turlari

Andaza turlari. Asosiy va ishchi andazalarni tayyorlash. Hosila va yordamchi andazalar. Andazalarni rasmiylashtirishning texnik talablari.

28- mavzu. Andazalar gradatsiyasi usullari.

Andazalarni texnik ko'paytirish to'g'risida umumiy tushuncha. Ko'paytirish o'qlari va ko'paytirish qiymatlari. Gradatsiya tamoyillari va usullari. Andazalar gradatsiyasining tipaviy sxemalari.

29- mavzu. Kiyim andazalari joylashmasini bajarish usullari

Andazalar joylashmasiga oid hisoblar. Andazalar joylashmasini bajarishga doir texnik talablar. Kiyim uchun material sarfi normasini aniqlash. Kiyim uchun material to'shamasini hisoblash usullari. Andazalararo chiqitlarni hisoblash

30- mavzu. Kiyim konstruksiyasining qulayligi va tejamligi

Kiyim konstruksiyasining texnologik jihatdan takomilligi va uni oshirish yo'llari. Konstruksiyani texnologik takomillashtirish uchun unga qayta ishlov berish. Kiyim konstruksiyasining ishlov berishga tejamligi. Konstruksiyaning tejamkorligini oshirish omillari. Konstruksiyani unifikatsiyalash. Eksploatatsion tejamlik.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

1. Kiyim konstruktiv tuzilishini tahlil qilish.
2. Kiyim tashqi va ichki razmerlari tahlili qo'shimchalarni hisoblash.
3. Hisob usulini qo'llab to'g'ri yubka AK sini qurish.
4. Shim asos konstruksiyasini hisoblash va qurish.
5. Ayollar ko'ylagi AK sini hisoblash va qurish.
6. Erkaklar ko'ylagi asos konstruksiyasini hisoblash va qurish
7. Erkaklar pidjagi asos konstruksiyasini hisoblash va qurish.
8. Yoqalar va bo'yin o'mizini bezash elementlari konstruksiyalarini qurish.

IV. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Laboratoriya mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Mulyaj usulini qo'llab to'g'ri yubka konstruksiyasini ishlab chiqish.
2. Mulyaj usulini qo'llab ayollar ko'ylagi konstruksiyasini ishlab chiqish.
3. To'g'ri yubka konstruksiyasi maketini tayyorlash va tekshirish.

4. Ayollar ko'ylagi va yangi konstruksiyasi maketini tayyorlash va tekshirish.
5. Shim konstruksiyasi maketini tayyorlash va tekshirish.
6. Erkaklar pidjagi model konstruksiyasini ishlab chiqish.
7. Erkaklar pidjagi model konstruksiyasini maketda tekshirish.
8. Bo'yin o'mizida murakkab shakl hosil qilish va turli yoqalarni ishlab chiqish, maketda tekshirish.
9. Model eskizi bo'yicha bel kiyimlarini konstruktiv modellash
10. Bel kiyimlari model konstruksiyasini maketda tekshirish.
11. Model eskizi bo'yicha ayollar kiyimlarini konstruktiv modellash
12. Ayollar kiyimlari model konstruksiyasini maketda tekshirish.
13. O'tqazma yenglarni konstruktiv modellash usullari.
14. Reglan yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish.
15. Reglan yeng bichimli kiyim maketini tayyorlash va qomatda tekshirish.
16. Yaxlit yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish.
17. Yaxlit yeng bichimli kiyim maketini tayyorlash va qomatda tekshirish.
18. Kiyim detallari andazalarini ishlab chiqish.
19. Kiyim detallari andazalarini texnik ko'paytirish.
20. Kiyim detallari joylashmasini bajarish.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari boyicha olgan bilim va ko'nikmalarini laboratoriya ishlarini bajarishda qo'llaydilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, qo'shimcha ma'lumotlar orqali talabalar bilimini oshirish maqsadga muvofiq.

V. Kurs loyiha bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Kurs loyiha uchun tavsiya etiladigan mavzular (Kiyim assortimenti va vazifasi talaba tanloviga asosan olinadi):

1. Erkaklar kurtkasi yangi model dizayn loyahasini ishlab chiqish
2. O'g'il bolalar yangi sorochkasi model dizayn loyahasini ishlab chiqish
3. Ayollar komplekti yangi model dizayn loyahasini ishlab chiqish
4. O'smir qizlar ko'ylagi yangi model dizayn loyahasini ishlab chiqish

Kurs loyiha fan mavzulariga taaluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs loyihaning hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs loyihani bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Kiyim loyihalashda qo'llaniladigan materiallar haqida ma'lumot to'plash.
2. Turli assortimentdagi kiyimlar uchun tasqi ko'rinishiga tavsif tuzish.
3. Kiyim konstruksiyalashning zamonaviy usullarini tahlil qilish.
4. Mulyaj usulida murakkab bichimli kiyim maketini tayyorlash.
5. Turli bichimdagi ayollar yubkasini shakli va konstruksiyasini tahlil qilish
6. Shimlarni konstruksiyalashning xususiyatlari.
7. Notipaviy qomatlar uchun kiyimlarni konstruksiyalash.
8. Trikotaj polotnosidan kiyimlarni konstruksiyalash.
9. Bolalar kiyimini konstruksiyalash xususiyatlari.
10. Bo'yin o'mizi shakli va turli yoqalarni tahlil qilish
11. Turli usullarda ayollar jaketini konstruksiyalash.
12. "Myuller i sin" metodikasi bo'yicha turli kiyim konstruksiyalarini ishlab chiqish.
13. Kiyim loyihalashda bezak berish usullari va ularni qo'llash
14. Murakkab bichimli ayollar kiyimini konstruksiyalash
15. Erkaklar ustki kiyimini konstruksiyalash
16. Boshqa turdagi kiyim hilini konstruksiyalash
17. Kiyim detallari andazalarni ko'paytirish.
18. Turli fakturadagi gazlamalar uchun andazalar joylashmasini ishlab chiqish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayorlash va uni taqdimot qilish, konstruksiya va loyihalash ishlarini bajarish tavsiya etiladi.

3.

VII. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari

Talaba bilishi kerak:

- "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash" fanini o'zlashtirish jarayonida *talaba:*

- konstruktiv modellar usullari, fan va texnika yutuqlardan foydalanib yangi kiyim modellarini sanoat sharoitida loyihalash yo'nalishlari *haqida tasavvurga ega bo'lishi;*
- iste'molchi va ishlab chiqarish talablarini hisobga olgan holda turli materiallardan yelkali va bel kiyim konstruksiyasini ishlab chiqishni, turli kiyimlarning bichimi va tashqi shakliga, konstruksiyasiga qo'yiladigan talablarni, odam qomatida kiyim sifatini baholash usullari va mezonlarini, bazali va asos konstruksiyani modifikatsiyalash orqali erkaklar va ayollar

	<p>kiyimlarini konstruktiv modellash usullarini, model eskizlarini tahlil qila olish va konstruktiv modellashning ratsional usullaridan foydalanishni, kiyim detallari andazalari chizmasini qurishni, kiyim detallari andazalarini ko'paytirish usullarini, materiallar sarfi normasini aniqlash va andazalar joylashmasini bajarishga doir texnik talablarni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>;</p> <p>- model eskizi bo'yicha kiyim konstruksiyasini ishlab chiqish, odam qomatida va manekenda kiyim maketini yaratish, kiyimlarni sanoat usulida konstruksiyalash va ishlab chiqarishga joriy etish uchun loyiha-konstruktorlik ishlarini bajarish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i></p>
4.	<p>VIII.Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • laboratoriya mashg'ulotlari; • interfaol keys-stadilar; • kichik guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • jamoa bo'lib ishlash; • video materiallar tayyorlash; • individual ishlash.
5.	<p>IV. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarini to'liq o'zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fikrlay olish, mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, nazorat turlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Kamilova X.X. Xamrayeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash». Darslik. – T.: «Cho'lpon», 2011 y. – 400 b 2. Madjidova Sh. G., Ulkanbayeva G.D. “Tikuv-trikotaj buyumlarini texnologiyasi”. O'quv qo'llanma. T., “Adabiyot uchqunlari”2018 y. <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, «O'zbekiston», 2017 yil, 488 bet. 4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, «O'zbekiston», 2016 yil, 56 bet. 5. Х.Х.Комилова, Н.К.Хамраева. Тикув буюмларини конструкциялаш. Дарслик. – “Молия”, 2003 й. – 350 б. 6. Kim Kyong. Pattern Making For Women's Clothes. “Anjungki, Korea publication”. 2016y. P-367.

	<p>7. Куренова С.В. Конструирование одежды: Учебное пособие. Изд. 3-е /С.В.Куренова, Н.Ю.Савельева – Ростов н/д: Феникс, 2006. – 480</p> <p>8. Мартынова А.И., Андреева Е.Г., «Конструктивное моделирование одежды». М., ОАО «Можайский полиграфический комбинат», 2002 – 310 с.</p> <p>9. Е Б Булатова, М.Н.Евсеева. Конструктивное моделирование одежды., «Академия», 2012 г.</p> <p>Axborot manbalari:</p> <p>10. http://www.ziyonet.uz -Ta'lim portali.</p> <p>11. http://titli.uz -Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti sayti.</p> <p>12. lex.uz -O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>13. https://www.topuniversities.com/world-university-rankings/2024 https://www.cornell.edu/about/</p> <p>14. Transformable Fashion: The Biggest Sustainable Clothing Trend That Never Was. The Fashion Studies Journal.</p>
7.	Fanning o'quv dasturi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institut Kengashining 202_yil "_____"dagi "_____"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: Ulkanbayeva G.D – TTYeSI, «Tikuv buyumlari texnologiyasi va raqamli injiniring» kafedrası dotsenti
9.	Taqrizchilar: Tashmuhamedova M.B MChJ "NURTEX" korxonasi direktori Isayeva D.X. - TTYeSI, "TBTvaRP" kafedrası dotsenti

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

№	OTM nomi	QS	THE	Havolalar	Sillabusdagi mavzu nomi	Chet el universiteti Sillabuslaridagi mavzular
1	Kornelli Universiteti	13	-	https://www.topuniversities.com/world-university-rankings/2024 https://www.cornell.edu/about/	5-mavzu qisman olingan	Transformable Fashion: The Biggest Sustainable Clothing Trend That Never Was
2	Yonse Universiteti	76	-	https://documents.manchester.ac.uk/display.aspx?DocID=44095&utm	8-mavzu qisman olingan	Observations on the Present and Future of Mass Customization